


IX. KICHIK TADBIRKORLIK (BIZNES)


2024-yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YAHM dagi ulushi **68,2 %** ni tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-mart oylarida **1 908** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.



Eng ko'p yangidan tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida 703 ta, sanoat tarmog'ida 309 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 234 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 120 ta, axborot va aloqada 110 ta, qurilish sohasida 89 tani tashkil etilgan.

Korxonalar soni kesimida



2024-yilning yanvar-mart oylarida yalpi hududiy mahsulotning 68,2 foizi (2023-yil yanvar-martida 67,4 foiz) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.



sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi 6 854,8 mlrd. soʻmni (sanoat ishlab chiqarish umumiy hajmining 47,7 foizi va faoliyat koʻrsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 5 484 tani tashkil etdi);



5 531,8 mlrd. soʻmlik qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaliklari mahsulotlari (qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaliklari umumiy hajmining 92,7 foizi) faoliyat koʻrsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 2 472 tani tashkil etdi;



3 059,2 mlrd. soʻmlik investitsiyalar oʻzlashtirilib (umumiy investitsiyalar hajmining 42,8 foizini tashkil etdi);



1 576,9 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 79,9 foizi) (qurilish sohasida faoliyat koʻrsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 2 326 tani tashkil etdi);



avtomobil transporti yuk aylanmasining hajmi 328,7 mln. tonna km. tashkil qilib 86,1 foizi, umumiy yoʻlovchi aylanmasi 3 386,3 mln. yoʻlovchi km. tashkil qilib 98,5 foizi kichik tadbirkorlik subyektlari hisobiga toʻgʻri kelmoqda (faoliyat koʻrsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 1 000 tani tashkil etmoqda)




chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 84,2 foizi yoki 5 538,0 mlrd. soʻm, xizmatlar umumiy hajmining 66,4 foizi yoki 5 220,7 mlrd. soʻmni tashkil qildi. Savdo ohasida faoliyat koʻrsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 16 063 ta.




79,1 mln. AQSh dollari miqdorida eksport va (eksport hajmining 44,2 foizi) 191,6 mln. AQSh dollari miqdorida import (import hajmining 34,4 foizi) operatsiyalari amalga oshirildi.

2024-yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi ulushi




	<i>Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd. so‘m</i>	<i>kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi ulushi, % hisobida</i>
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	5 531,8	92,7
Sanoat	3 854,8	47,7
Qurilish	1 576,9	79,9
Chakana savdo	5 538,0	84,2
Yuk tashish, <i>mln tn.</i>	328,7	91,5
Yo‘lovchi tashish, <i>mln. kishi</i>	3 386,3	96,4
Eksport, <i>mln. AQSh doll.</i>	79,1	44,2
Import, <i>mln. AQSh doll.</i>	191,6	34,4

Yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) ulushining o'zgarishi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)




2024-yilning 1-aprel holatiga 55 659 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar (dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari) davlat ro'yxatidan o'tkazilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan (52 746 ta) 105,5 foizni tashkil etdi.





Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar ro'yxatdan o'tganlarning ulushida savdo (40,8 %), sanoat (16,8 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (9,6 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (8,7 %), qurilish (6,9 %), tashish va saqlash (2,6 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (2,0 %) hamda axborot va aloqa (1,9 %) sohalariga to'g'ri kelmoqda.

2024-yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi
(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz, jamiga nisbatan foiz hisobida)




2019-2024-yillar yanvar-mart oylariga kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati





2024-yilning yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi

Shahar va tumanlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Samarqand shahri (841,8 mlrd. so'm), Urgut (383,3 mlrd. so'm), Jomboy (372,5 mlrd. so'm), Samarqand (323,8 mlrd. so'm), Toyloq (210,3 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Ishtixon (60,5 mlrd. so'm) va Qo'shrabot tumanlarida (31,5 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




■ hajm, mlrd. so'm

2019-2024-yillar yanvar-mart oylariga kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdodagi faoliyati




2024-yilning yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari




Kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan chakana tovar aylanmasi hajmida Samarqand shahri (1 457,0 mlrd. so'm), Urgut (632,9 mlrd. so'm) va Samarqand (526,5 mlrd. so'm) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

2019-2024-yillar yanvar-mart oylariga kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



2024-yilning yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da xizmat ko'rsatish hajmi va o'sish sur'atlari



Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning yuqori ulushlari Qo'shrabot tumani (jami xizmatlar hajmiga nisbatan ulushi (84,1 %), Narpay tumani (83,4 %), Kattaqo'rg'on (82,9 %), Oqdaryo (82,6 %) va Jomboy (80,8 %) tumanlariga to'g'ri kelgan bo'lsa eng past ko'rsatkich Samarqand shahriga (53,6 %) to'g'ri keladi.